

I VA II JAHON URUSHI DAVRI SHE'RIYATIDA URUSH MOTIVINING BADIY KONSEPTUALIZATSIYASI (TADQIQOTNING METODOLOGIYASI VA SHARHI).

Mahmudova Nilufar

Mustaqil tadqiqotchi

mahmudovanilufar800@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada I va II Jahon urushlari davri she'riyatida urush motivining badiiy konseptualizatsiyasi qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etilgan. Maqolada ingliz (V. Ouen, Z. Sassun, I. Rozenberg) va o'zbek (G'. G'ulom, H. Olimjon, Zulfiya, M. Shayxzoda) she'riyatidagi urush talqinlari tahlil qilinar ekan, ularning falsafiy-estetik asoslaridagi farqlari ochib berilgan. Tadqiqotda ingliz she'riyatida urush qanday gavalangan, uning shaxsiy psixologik jarohati, antiromantik inqiroz va ironiya tili orqali ifoda etilgani, o'zbek she'riyati esa uni umuminsoniy gumanizm, ma'naviy matonat va najot tili sifatida badiiy konseptualizatsiya qilgani isbotlangan. Maqolada P. Fussell, V.M. Jirmunskiy va I. Sulton kabi olimlarning metodologik qarashlariga tayanilgan holda, milliy adabiyotlarning global fojiaga nisbatan o'ziga xos estetik reaksiyalari ochiq yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Urush motivi, qiyosiy adabiyotshunoslik, badiiy konseptualizatsiya, ingliz she'riyati, o'zbek she'riyati, lirik qahramon, gumanizm, ironiya, ma'naviy matonat.

Аннотация: В данной статье в сравнительно-типологическом аспекте исследуется художественная концептуализация мотива войны в поэзии периодов Первой и Второй мировых войн. В ходе анализа интерпретаций войны в английской (В. Оуэн, З. Сассун, И. Розенберг) и узбекской (Г. Гулям, Х. Алимджан, Зульфийа, М. Шайхзаде) поэзии раскрываются различия в их философско-эстетических основах. Доказано, что если в английской поэзии война воплощена через призму личной психологической травмы, антиромантического кризиса и языка иронии, то узбекская поэзия концептуализирует её как символ общечеловеческого гуманизма, духовной стойкости и языка спасения. Опираясь на методологические взгляды таких ученых, как П. Фасселл, В.М. Жирмунский и И. Султан, в статье освещаются

специфические эстетические реакции национальных литератур на глобальную трагедию.

Ключевые слова: *Мотив войны, сравнительное литературоведение, художественная концептуализация, английская поэзия, узбекская поэзия, лирический герой, гуманизм, ирония, духовная стойкость.*

Abstract: *This article explores the artistic conceptualization of the war motive in the poetry of the World War I and World War II periods from a comparative-typological perspective. Through an analysis of war interpretations in English (W. Owen, S. Sassoon, I. Rosenberg) and Uzbek (G. Gulyam, H. Alimjan, Zulfiya, M. Shakhzoda) poetry, the study reveals fundamental differences in their philosophical and aesthetic foundations. The research demonstrates that while English poetry portrays war through the lens of personal psychological trauma, the crisis of anti-romanticism, and the language of irony, Uzbek poetry conceptualizes it as a symbol of universal humanism, spiritual fortitude, and a language of salvation. Drawing upon the methodological frameworks of scholars such as P. Fussell, V.M. Zhirmunsky, and I. Sulston, the article highlights the distinct aesthetic responses of national literatures to a global tragedy.*

Keywords: *War motive, comparative literature, artistic conceptualization, English poetry, Uzbek poetry, lyrical hero, humanism, irony, spiritual fortitude.*

Jahon tamadduni tarixida I va II Jahon urushlari nafaqat geosiyosiy inqiroz, balki insoniyatning intellektual va estetik tafakkuridagi tub burilish davri sifatida muhurlandi. Ushbu global fojialar natijasida insonning borliq, hayot va o‘lim haqidagi an‘naviy tasavvurlari transformatsiyaga uchradi va yangi badiiy voqelik paydo bo‘la boshladi. Shu o‘rinda transformatsiya so‘ziga ta‘rif berib ketaylik. Transformatsiya – bu eski qarashlarning urush ta‘sirida mutlaqo yangi shakl va ma‘noga aylanishidir. Badiiy adabiyot, xususan, she‘riyat ushbu voqelikni estetik jihatdan qayta idrok etishning eng operativ vositasiga aylandi. Bugungi zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biri – urush motivining badiiy asardagi konseptualizatsiya jarayonini o‘rganib chiqishdir.

Badiiy konseptualizatsiya – ijodkorning tarixiy voqelikni shunchaki tasvirlashi emas, balki uni o‘zining individual-falsafiy qarashlari, adabiy uslublaridan foydalanish orqali, yangi bir ma‘naviy-estetik tizimbarpo etishdir. Urush motivi she‘riyat olamida turli milliy adabiyotlar va davrlar kesimida o‘ziga



xos taraqqiylashish yo‘lini bosib o‘tdi. Rus adabiyotshunosi V.M. Jirmunskiy ta’kidlaganidek: “Har bir milliy adabiyot o‘zining tarixiy-madaniy tajribasidan kelib chiqqan holda jahon adabiyotidagi umumiy motivlarni o‘ziga xos tarzda transformatsiya qiladi”¹

Ingliz she’riyatida urush, ayniqsa, I Jahon urushi epik qahramonlik tushunchasining inqirozga yuz tutishi hamda anti-romantik yo‘nalishning shakllanishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, II Jahon urushi o‘zbek she’riyatida yuksak gumanizm va umuminsoniy birdamlik tushunchalarini yangi bosqichga ko‘tardi. Britaniyalik tadqiqotchi P. Fassell o‘zining “The Great War and Modern Memory” (“Buyuk urush va zamonaviy xotira”) asarida ushbu jarayonni an’anaviy ritorikadan voz kechib, uning o‘rniga zamonaviy xotira madaniyatining vujudga kelishi sifatida baholaydi². Olimning fikriga ko‘ra, urush bergan azoblar, uning mislsiz shafqatsizligi va texnologik qirg‘inbarotlari yozuvchilarni avvalgi davrlarga xos bo‘lgan balandparvoz, dushmanga qarshi nafratga asoslangan vatanparvarlik ritorikasidan voz kechib, chuqur insoniy iztirob tiliga o‘tishga majbur qildi. Ana shunday tartibga o‘tish bu transformatsiya va bu adabiyotda shunchaki lirik hissiyotlar yoki bo‘lmasa kishining oddiy kechinmalarigina emas, balki insoniyat fojiasini asl holicha, barcha daxshatlari bilan ko‘rsatuvchi shafqatsiz haqiqat va hujjatli-badiiy tasvir ustuvorligini ta’minladi. P. Fassellning ta’kidlashicha, birinchi jahon urushigacha bo‘lgan adabiyotda urush shon-sharafli sarguzasht sifatida ko‘rsatilgan bo‘lsa, urushdan keyingi zamonaviy xotira uni ma’nosiz qurbonlar, fojia, insonning mantiqsiz qismati, dahshatli o‘lim va ma’naviy inqiroz nuqtasi sifatida muhrladi. Natijada, badiiy tilda ironiya (kesatiq) va paradoks (ziddiyatli haqiqat) yetakchi o‘ringa chiqdi: endilikda yozuvchi qahramonlikni emas, balki urush girdobida qolgan inson qismatini, uning ruhiy singanligini va bu fojiaga nisbatan munosabatini tadqiq eta boshladi. Bu esa jahon adabiyotida realizmning yangi, yanada qat’iy va xolis bosqichini boshlab berdi.

Akademik Izzat Sulton esa o‘zbek urush davri lirikasi haqida to‘xtalib: “Lirik qahramon milliy chegaralardan chiqib, umuminsoniy dardning ifodachisiga aylandi”³ deb yozadi. Olimning bu fikri urush davri o‘zbek she’riyatida lirik qahramonning fikrlashlari naqadar kengayganligini ko‘rsatadi. Ya’ni, bu davr

¹ Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение: Восток и Запад. – Л.: Наука, 1979. – С. 22.

² Fussell P. The Great War and Modern Memory. – New York: Oxford University Press, 1975. – P. 112.

³ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 1980. – B. 188.



adabiyotida o‘zbek shoiri faqat o‘z xonadoni, o‘z qishlog‘i yoki millati taqdiri haqida qalam tebratibgina qolmaydi, balki butun insoniyatni tahdidga solayotgan fashizm balosiga qarshi kurashayotgan shaxs sifatida namoyon bo‘ldi.

Adabiyotshunos olim Naim Karimov G‘afur G‘ulom ijodini tahlil qilar ekan, shoirning “Sen yetim emassan” she‘ridagi lirik qahramon shunchaki o‘zbek xalqining mehmondo‘stligini she‘rda mujassam etibgina qolmay, balki dunyoning qaysi nuqtasida bo‘lishidan qat‘i nazar, zulm chekkan har bir insonga yelkadosh va panoh bo‘la oladigan umuminsoniy gumanizm darajasiga ko‘tarildi⁴. Shu ma‘noda, Izzat Sulton ta‘rif etgan milliy chegaralardan chiqish konsepsiyasi – bu milliy o‘zlikdan voz kechish emas, balki milliy qadriyatlarni (bag‘rikenglik, himmat, adolat) jahonshumul g‘oyalar bilan birlashtirish va ularni uyg‘unlashtirish demakdir.

I va II Jahon urushlari davri she‘riyatida urush badiiy tushunchasining vujudga kelishi jahon va milliy adabiyotshunoslikda turlicha metodologik yondashuvlar asosida o‘rganilib kelinmoqda. G‘arb adabiyotshunosligida, xususan, ingliz tadqiqotlarida I Jahon urushi she‘riyati an‘naviy vatanparvarlik ritorikasining inqirozga yuz tutishi va zamonaviy tafakkurning tug‘ilishi sifatida baholanadi. P. Fassell o‘zining fundamental “The Great War and Modern Memory” (“Buyuk urush va zamonaviy xotira”) asarida urush voqeligi ingliz she‘riyatidagi klassik ritsarlik tilini qanday qilib ironiya va shubha tiliga transformatsiya qilganini isbotlab berdi. Fassellning fikriga ko‘ra, urush tajribasi shoirlarni shon-sharaf kabi mavhum konsepsiyalardan voz kechishga va o‘limning mantiqsizligini va dahshatini boricha tasvirlashga majbur qilgan⁵.

Shuningdek, Jon Silkin “Out of Battle” (“Jang tashqarisida”) tadqiqotida ingliz urush she‘riyatidagi qahramonlikni rad etish tendensiyasini tahlil qilib chiqish jarayonida, bu holatni insonning tabiat va o‘zligidan begonlashishi natijasi sifatida konseptualizatsiya qiladi⁶. Silkin uchun urush she‘riyati – bu insonning o‘z mohiyatiga qaytish uchun qilgan og‘riqli va iztirobli intilishidir. Ya‘ni, olimning fikricha, urush sharoitida inson shunchaki jangovar birlik yoki to‘p yemiga aylanib qoladi xolos. Bunday holatda esa hech qanday ma‘no yo‘q. O‘lim o‘sha o‘sha mantiqsiz.

⁴ Каримов Н. Фафур Фулом: Маънавият ва маданият. – Т.: Маънавият, 2013. – Б. 94.

⁵ Fussell P. The Great War and Modern Memory. – New York: Oxford University Press, 1975. – P. 112-114.

⁶ Silkin J. Out of Battle: The Poetry of the Great War. – Oxford: Oxford University Press, 1972. – P. 341-347.



V. Ouen va I. Rozenberg kabi ingliz shoirlar o‘z she‘rlarida mana shu mexanizatsiyalashgan o‘linga qarshi bosh ko‘taradilar. Ular uchun urushda qahramonlik ko‘rsatib halok bo‘lish kerak emas va bu muhim ham emas, balki urushning qonli changalida insoniy his-tuyg‘ularni, shafqatni va shaxsiy Menni saqlab qolish muhimroq edi. Binobarin, Silkin tahlil qilgan tushkunlik – bu ojizlik emas, balki hayotning qadrini anglashdan tug‘ilgan fojiviy og‘riqdir. Shoirlar o‘z ijodlari orqali o‘quvchiga ko‘plab narsalarni yetkazishga urinishgan. Ular insonni urush keltirib chiqargan ma‘naviy begonalashuvdan qutqarishga, uni yana o‘zining asliy, tinch va insonparvar tabiatiga qaytarishga harakat qilganlar.

O‘zbek adabiyotshunosligida esa II Jahon urushi davri she‘riyati ingliz lirikasi kabi mavjud inqiroz emas, balki ma‘naviy butunlik va najot tili orqali o‘rganib kelinmoqda. Akademik Izzat Sulton “Adabiyot nazariyasi” asarida ta‘kidlaganidek, o‘zbek urush davri lirikasida lirik qahramon psixologiyasi milliy doiradan chiqib, umuminsoniy dard ifodachisiga aylandi. Sulton talqinida urush – xalqlarni ma‘naviy jihatdan birlashtiruvchi fojidadir. Ya‘ni, akademik I. Sulton o‘zbek she‘riyatidagi musibatdoshlik tuyg‘usini tadqiq etar ekan, urush keltirib chiqargan umumiy fojia o‘zbek lirik qahramonini dunyo xalqlari bilan ma‘naviy-ruhiy jihatdan bir qatorga qo‘yganini isbotlaydi⁷. Bu esa milliy adabiyotimizning jahon adabiyotidagi gumanistik kuchli hayajon bilan hamohangligini ta‘minlagan muhim omildir.

Akademik Naim Karimov ham o‘z tadqiqotlarida o‘zbek shoirlari ijodidagi urush motivini gumanizm konsepsiyasi bilan uzviy bog‘laganini ko‘rishimiz mumkin. Olimning o‘ylashicha, o‘zbek she‘riyatining ajralib turadigan jihati shundaki, u dushman siymosiga nafrat bilan qarashdan ko‘ra, ko‘proq insonni asrab qolish, hayot davomiyligini ta‘minlash va ma‘naviy butunlikni saqlash g‘oyalariga alohida e‘tibor qaratgan. N. Karimov ta‘kidlaganidek, hatto eng og‘ir janglar tasvirlangan she‘rlarda ham o‘lim tushunchasi hayotsevarlik (optimizm) ruhida yengiladi. Bu jarayonni olim o‘zbek xalqining asriy qadriyatlari – mehr-oqibat va bag‘rikenglikning urush sharoitidagi sinovi sifatida baholaydi⁸.

Adabiyotshunos Ibrohim G‘afurov esa bu jarayonni fojia ichidan nur izlash san‘ati deb biladi⁹ Olim o‘zbek she‘riyati fojiviy ko‘lamni izchil tahlil qilishda milliy ma‘naviyat tushunchasi bir qadam ustuvorligini ko‘rsatadi.

⁷ Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 188–189

⁸ Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – Б. 142–145.

⁹ Гафуров И. Ширин ва аччиқ мевалар: Адабий-танқидий мақолалар. – Т.: Гафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 56.



V.M. Jirmunskiyning qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi ushbu ikki milliy tajribani qarama-qarshi tahlil qilish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Jirmunskiyning tarixiy-tipologik o‘xshashlik va adabiy aloqalar haqidagi ta’limoti turli geografik kengliklarda yashagan ingliz va o‘zbek shoirlari ijodidagi birdamlik hamda farqlarni ilmiy farqlay olish, ularni asoslay olish imkonini beradi. Olimning fikricha, milliy adabiyotlar bir-biridan mustaqil tarzdatarqqiy etsada, urush kabi umuminsoniy fojialar sharoitida ularning badiiy tafakkurida o‘xshash tipologik hodisalar (masalan, gumanizmning kuchayishi yoki qahramon obrazining transformatsiyasi) yuzaga keladi¹⁰. Shu nuqtayi nazardan, Jirmunskiy metodologiyasi Fassell tahlil qilgan ingliz skeptitsizmi (shubha) va o‘zbek she’riyatidagi hayotsevarlik tushunchalarini shunchaki qarama-qarshi qo‘ymay, balki ularni insoniyatning yagona urush fojiasiga bo‘lgan ikki xil madaniy-psixologik reaksiyasi sifatida tahlil qilishga xizmat qiladi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ingliz adabiyotshunosligi ko‘proq psixologik jarohat va modernizm aloqalariga, o‘zbek adabiyotshunosligi esa gumanistik pafos (kuchli hayajon) va ma’naviy matonat masalalariga e’tibor qaratgan. Biroq, I Jahon urushi ingliz she’riyatidagi inqiroz tili bilan II Jahon urushi o‘zbek she’riyatidagi najot tili hali hech bir tadqiqotda bevosita qiyosiy-tipologik qarashlarda qarama-qarshi qo‘yib o‘rganilmagan. Ushbu maqola aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga, ya’ni urush motivining ikki xil madaniy va tarixiy muhitdagi konseptualizatsiya darajasini qiyoslashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

I va II Jahon urushlari davri she’riyatida urush konseptining badiiy shakllanishi har bir milliy adabiyotning o‘ziga xos estetik uslublari, davri va tarixiy tajribasidan kelib chiqqan holda turlicha natijalarni beradi. Ingliz she’riyatida, xususan, Vilfred Ouen ijodida urush motivi an’anaviy qahramonlik ritorikasini parcha-parcha qiluvchi vayronkor kuch sifatida konseptualizatsiya qilinadi. Shoirning mashhur “Dulce et Decorum Est” (“Vatan uchun jon fido qilmoq shirin va sharaflidir”) she’rida urush – vatan uchun jon fido qilishning sharafli ekanligi haqidagi qadimiy mifning qat’iy inkoriga aylanadi. Ouen gaz hujumiga uchragan askarning holatini tasvirlashda:

*If in some smothering dreams you too could pace
Behind the wagon that we flung him in¹¹.*

¹⁰ Жирмунский В. М. Сравнительное литературоведение: Восток и Запад. – Л.: Наука, 1979. – С. 66–70.

¹¹ Owen W. The Poems of Wilfred Owen. – London: Chatto & Windus, 1920. – P. 15.

Tarjimasi: Agar siz ham bo‘g‘uvchi dahshatli tushlar ichra,
Biz uni (jasadni) uloqtirgan o‘sha arava ortidan,
Qadam tashlab bora olganingizda edi...

misralarini keltirib, urushni inson jasadini buyum darajasiga tushiruvchi mantiqsiz jarayon sifatida ifodalaydi. Bu misralar orqali shoir: agar siz ham mana shu gazdan o‘lgan o‘likning yuzidagi azobni ko‘rganingizda edi, vatan uchun jon fido qilmoq – sharaflidir deya balandparvoz so‘zlamas edingiz demoqchi.

Shuningdek, Siegfried Sassoonning “Suicide in the Trenches” (“Oq okoplarda o‘z joniga qasd qilish”) asaridagi

He put a bullet through his brain.

No one spoke of him again¹².

Tarjimasi: U miyasiga o‘q uzdi (o‘zini otib qo‘ydi),
Va hech kim u haqida boshqa gapirmadi.

satrlari ingliz askarining ruhiy inqirozi va urushning unutilish hamda hech qanday chora yo‘qlik konsepti ekanligini isbotlaydi. Asosan urushda vafot etgan askarlarimizni mardlarcha halok bo‘ldi deb yozishadi urush kitoblarida. Ammo bu yerda askar dushman o‘qidan emas, urush dahshatiga chiday olmay o‘z joniga qasd qilyapti. Bu – anti-romantik tasvir.

No one spoke of him again (Hech kim u haqda gapirmadi) degan satr eng og‘riqli satrdir. Ya‘ni, urushda o‘z joniga qasd qilgan askar sharmandalik yoki qo‘rqoqlik tang‘asi bilan darrov uni unutishadi. Unga haykal qo‘yilmaydi, uning ismi gazetalarda chiqmaydi.

Isaac Rosenbergning “Break of Day in the Trenches” (“Okoplarda tong”) asarida esa urush tabiatning abadiy bo‘lishi hamda shafqatsiz kechishi sifatida ramziylashadi:

The darkness crumbles away.

It is the same old druid Time as ever¹³.

Tarjimasi: Zulmat parcha-parcha bo‘lib uvalanadi,
Bu o‘sha qadimiy, o‘sha tanish afsungar Zamon...

Odatda tong otishi yorug‘lik kelishi deb ijobiy tasvirlanadi. Ammo Rozenbergda tong –zulmatning uvalanishi, ya‘ni yemirilishi kabi salbiy ohangda

¹² Sassoon S. The War Poems of Siegfried Sassoon. – London: William Heinemann, 1919. – P. 39.

¹³ Rosenberg I. Poems by Isaac Rosenberg. – London: William Heinemann, 1922. – P. 73.

tasvirlangan. Bu okoplardagi askarlar uchun yangi kun – yangi umid emas, balki o‘lim bilan yuzma-yuz kelishning davomi ekanini bildiradi. Druid (afsungar)– bu qadimgi keltlarning kohini, afsungari. Rozenberg Zamoni (vaqtni) sehgarga o‘xshatadi. Bu yerda urush – insonlar o‘ylab topgan narsa emas, balki Zamoning (tarixning) shafqatsiz, o‘zgarmas qonuniyatidek ko‘rsatiladi. U o‘zgarmaydi go‘yo, davom etaveradi.

Ushbu anti-romantik yo‘nalishga zid o‘laroq, II Jahon urushi davri o‘zbek she‘riyatida urush konsepti ma‘naviy butunlik va najot tili orqali shakllandi. G‘afur G‘ulomning “Sog‘inish” she‘ridagi:

Seni sog‘inganda qildim gul payvand,
Bu bahordan hayot olardi bo‘sa¹⁴.

Bunga zid o‘laroq, o‘zbek she‘riyatida (G‘afur G‘ulom) urush konsepti hayotsevarlik (optimizm) va gumanizm tili bilan ifodalanadi. Shoir sog‘inch va ayriliq azobini passiv kutish bilan emas, balki "gul payvand qilish" kabi bunyodkorlik harakati bilan yengadi. Ya‘ni, inglizlarda urush – o‘lim va unutilish bo‘lsa, o‘zbeklarda – fojia ichidan nur izlash, sharaflilik mehnat va ma‘naviy butunlikni saqlab qolish jarayonidir.

Shoirning mashhur “Sen yetim emassan” asari esa o‘zbek xalqining bag‘rikenglik konseptining eng oliy namunasi:

*Uxlama, jigarim, uxlama, qo‘zim,
Sen yetim emassan, men tirikman-ku!*¹⁵.

Bu yerda urush keltirgan fojia ota va vatan mehri bilan konseptual darajada yengib o‘tiladi.

Zigfrid Sassun ijodida urush shaxsiy inqiroz va chorasizlik sifatida (“He put a bullet through his brain”) namoyon bo‘lsa, Hamid Olimjonning “Qo‘lingga qurol ol!” she‘rida urush – erk va hayotni asrash uchun kurash vositasi sifatida talqin qilinadi. Shoir o‘zbek askari nima uchun qurol olishi kerakligini shunday tushuntiradi:

Ko‘rsin desang jahonni ko‘zim,
O‘ssin desang bog‘imda uzum,
Umid bilan o‘stirgan qizim

¹⁴ Faфур Фулом. Асарлар. 12 томлик. 2-том: Шеърлар (1941–1945). – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – Б. 34.

¹⁵ Faфур Фулом. Асарлар. 12 томлик. 2-том: Шеърлар (1941–1945). – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – Б. 22.



Desang agar, bo‘lmasin uvol,
Qo‘lingga qurol ol!¹⁶

Bu yerda Sassun askaridagi kabi o‘limga taslim bo‘lish yo‘q. Aksincha, Hamid Olimjonda shaxsiy baxt (qizining kelajagi, bog‘idagi uzum) umummilliy kurash bilan bog‘lanadi. Bu – o‘zbek urush she‘riyatidagi najot tili bo‘lib, u dushmandan qochishni emas, balki hayotni himoya qilish orqali fojiani yengishni taklif etadi.

Hamid Olimjon she‘riyatidagi hayotni himoya qilish motivining mantiqiy davomini Zulfiya ijodida ham ko‘rish mumkin. Shoiraning “Uni Farhod der edilar” dostoni urush fojiasini ayol va ona qalbi prizmasidan o‘tkazib, uni matonat va hayotsevarlik konseptlari bilan boyitadi. Doston qahramoni Qobil Qorining (Farhod) jarohatlanib, o‘lim bilan yuzma-yuz kelgan holati Sassoon va Owen tasvirlagan modernistik inqiroz – chorasiz o‘limga o‘zbekona javob sifatida namoyon bo‘ladi:

*Intiladi oldinga tomon,
Lekin buloq kabi oqqan qon
Imkon bermas olga yurishga,
Dushmaniga o‘qin uzishga.
...Yosh yuragi hayot istaydi,
Qoni qasos tomon qistaydi¹⁷.*

Bu yerda Zulfiya urush keltirgan jismoniy halokatni inkor etmagan holda, unga qarshi insoniy irodani qo‘yadi. Agar Zigfrid Sassoon askari urush dahshatidan qochish uchun o‘z joniga qasd qilishni yagona chora deb bilsa, Zulfiya qahramoni jismoniy imkoniyati tugayotgan (qon oqayotgan) pallada ham ongli ravishda “hayot istaydi”. Bu – o‘zbek urush she‘riyatiga xos bo‘lgan optimistik ruhning eng cho‘qqisidir. Shoira o‘limni personaj sifatida qarshisiga keltirib qo‘ysa-da, qahramonning qoni “qasos tomon qistashi” orqali urushning shaxsiy fojia emas, balki adolatli mudofaa ekanligini konseptual darajada asoslaydi. Bu esa, o‘z navbatida, Maqsud Shayxzoda ta’kidlagan urushning falsafiy-dialektik mohiyatiga yo‘l ochadi.

Maqsud Shayxzodaning “Kurash nechun?” she‘ridagi

*Inson bolasi insoniyat baxti uchun kurashar,
Zulm qasrining poydevori qon bilan to‘lar*

¹⁶ Ҳамид Олимжон. Танланган асарлар. 10 томлик. 2-том: Шеърлар (1937–1941). – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – Б. 225.

¹⁷ Зулфия. Асарлар. 3 томлик. 2-том: Достонлар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б. 144.



satrlari esa urushning falsafiy va dialektik mohiyatini ochib beradi.
Hatto ingliz she'riyatining ilk davridagi Rupert Brukening

*If I should die, think only this of me:
That there's some corner of a foreign field
That is for ever England¹⁸*

Tarjimasi: Agar o'lsam, men haqimda faqat shuni o'yla:
Yot o'lkaning qaysidir bir chekkasi bor,
U mangu Angliya bo'lib qolur.

kabi romantik misralari ham keyinchalik Ouen va Sassun ijodidagi modernistik inqiroz fonida o'zining an'anaviy ahamiyatini yo'qotganini ko'ramiz.

Tadqiqot jarayonida ko'rib chiqilgan ingliz va o'zbek she'riyatidagi urush talqinlari, undaki tasvirlar ikki xil estetik dunyoqarashni namoyon etadi. Ushbu milliy adabiy tajribalardagi o'xshashlik va keskin farqlarni, shuningdek, lirik qahramon konsepsiyasidagi o'zgarishlarni tizimli ravishda umumlashtirish maqsadida quyidagi qiyosiy-tipologik jadvalni keltirib o'tamiz:

Qiyosiy mezonlar	Ingliz she'riyati (I Jahon urushi)	O'zbek she'riyati (II Jahon urushi)
Urushga bo'lgan munosabat	Anti-romantizm, shubha va inqiroz.	Gumanizm, vatanparvarlik va najot.
Lirik qahramon	Psixologik jarohat olgan, begonalashgan shaxs.	Milliy chegaradan chiqqan umuminsoniy xaloskor.
Asosiy motivlar	O'limning mantiqsizligi, urush daxshati.	Ma'naviy matonat, bag'rikenglik, g'alaba.
Badiiy uslub	Ironiya (kesatiq), paradoks, realizm.	Romantik pafos, hayotsevarlik (optimizm).
Tabiat va borliq	Shafqatsiz va befarq borliq (R. Bruke istisno).	Bunyodkorlik (gul payvand qilish) va umid.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, ingliz va o'zbek urush she'riyati o'rtasidagi farq ularning falsafiy-estetik asosida yaqqol seziladi. Agar ingliz shoirlari (Ouen, Sassun, Rozenberg) urushni shaxsiy psixologik jarohat, estetik inqiroz va modernistik ironiya tili orqali konseptualizatsiya qilgan bo'lsalar, o'zbek

¹⁸ Brooke R. 1914 & Other Poems. – London: Sidgwick & Jackson, Ltd., 1915. – P. 15.



shoirleri (G‘. G‘ulom, H. Olimjon, Zulfiya, Shayxzoda) urushni xalqning sinovi, birlashish va tiklanish ramzi sifatida ochib berdilar. Ingliz lirikasi urushning mantiqsizligini namoyon qilib, dahshatli realizmni kashf etgan bo‘lsa, o‘zbek lirikasi esa urush sharoitida insoniy qiyofani saqlab qolishning ma’naviy qalqonini yaratdi. Bu ikki xil estetik yondashuv orqali o‘quvchi jahon urush adabiyotining naqadar serqirra ekanini anglab olishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Brooke R. 1914 & Other Poems. – London: Sidgwick & Jackson, Ltd., 1915. – 64 p.
2. Fussell P. The Great War and Modern Memory. – New York: Oxford University Press, 1975. – 363 p.
3. Owen W. The Poems of Wilfred Owen. – London: Chatto & Windus, 1920. – 33 p.
4. Rosenberg I. Poems by Isaac Rosenberg. – London: William Heinemann, 1922. – 186 p.
5. Sassoon S. The War Poems of Siegfried Sassoon. – London: William Heinemann, 1919. – 95 p.
6. Silkin J. Out of Battle: The Poetry of the Great War. – Oxford: Oxford University Press, 1972. – 366 p.
7. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение: Восток и Запад. – Л.: Наука, 1979. – 496 с.
8. Зулфия. Асарлар. 3 томлик. 2-том: Достонлар. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – 256 б.
9. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – 524 б.
10. Каримов Н. Фафур Гулом: Маънавият ва маданият. – Т.: Маънавият, 2013. – 192 б.
11. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 392 б.
12. Хамид Олимжон. Танланган асарлар. 10 томлик. 2-том: Шеърлар (1937–1941). – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – 312 б.

13. Гафуров И. Ширин ва аччиқ мевалар: Адабий-танқидий мақолалар. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – 240 б.

14. Гафур Гулом. Асарлар. 12 томлик. 2-том: Шеърлар (1941–1945). – Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – 360 б.



Research Science and
Innovation House

